
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI
DAVLAT VA XO'JALIK BOSHQARUVI, MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI
XODIMLARINING MALAKASI VA KO'NIKMALARINI OSHIRISHGA DOIR QO'SHIMChA ChORA-
TADBIRLAR HAMDA ULARNI ISHDA KOMPYUTER TEXNIKASI VA AXBOROT-KOMMUNIKATsIYA
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YuZASIDAN ATTESTATsIYA DAN O'TKAZISH TARTIBI
TO'G'RISIDA

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 43-44-son, 465-modda; 2013 y., 34-son, 458-modda; 2015 y., 26-son, 338-modda; 2017 y., 15-son, 249-modda)

Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarida kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, xodimlar malakasi va ko'nikmalarini kompyuter savodxonligining minimal darajasi bo'yicha talablarga muvofiqligi yuzasidan baholashning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. 2012 yil 1 yanvardan boshlab quyidagilar:

[OKOZ:

1.13.00.00.00 Ta'lif. Fan. Madaniyat G' 13.01.00.00 Ta'lif G' 13.01.32.00 Malaka oshirish. Qayta tayyorlash]

Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining ishda kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari [1-ilovaga](#) muvofiq;

[OKOZ:

1.05.00.00.00 Mehnat va aholining bandligi to'g'risidagi qonunchilik G' 05.02.00.00 Mehnat G' 05.02.17.00 Attestatsiya (xodimlarni) (shuningdek, 13.02.04.00 va 13.01.16.00ga qarang)]

Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarini kompyuter savodxonligining minimal darajasi bo'yicha talablarga muvofiqligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom [2-ilovaga](#) muvofiq;

Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining kompyuter savodxonligining minimal darajasi bo'yicha talablarga muvofiqligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkaziladigan xodimlarining lavozimlari ro'yxati [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Davlat test markazi 2012 yil 1 yanvargacha bo'lgan muddatda davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining kompyuter savodxonligining minimal darajasi bo'yicha talablarga muvofiqligi yuzasidan baholash tizimining joriy etilishi va kelgusida ishlashini ta'minlaydigan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirsinlar.

3. Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Muvoqiqlashtiruvchi kengash (Aripov), davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari 2015 yil 1 yanvargacha ushbu qaror bilan tasdiqlangan Lavozimlar ro'yxatida lavozimlari nazarda tutilgan xodimlarni attestatsiyadan o'tkazilayotgan xodimda kompyuter savodxonligining minimal darajasi mavjudligini tasdiqlaydigan tegishli sertifikat olish uchun attestatsiyadan o'tkazish chora-tadbirlarini ko'rsinlar.

4. Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari zimmasiga ishda kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha xodimlar malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash va yaratish yuzasidan shaxsiy mas'uliyat yuklansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rino [\\$arz A.N. Aripov](#) zimmasiga yuklansin.

Toshkent sh.,

2011 yil 27 oktyabr,

289-son

2017-09-30 15:06:00